

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

# Tong Yulduzi



2014-yil 13-yanvar N:2 (66959)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

## 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni



Sherdil va o'tyurak yigitlar  
millat ko'rki, Vatan faxridir!

7-bet



Navoiylik  
o'quvchilar va  
ularning ustozlariga  
bag'ishlangan  
**MAXSUS SON**

«Obod turmush yili» nomi bilan tarix zarvaraqlariga muhrlangan 2013-yil ham iftixor etgulik ulkan muvaffaqiyatlarga, e'tirof etishga arzigudek o'zgarishlar, yangilanishlarga boy bo'ldi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Respublikamizning eng kenja viloyati bo'lmish Navoiyga qilgan ijodiy safarimiz chog'ida bu go'shada amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlariga guvoh bo'ldik. Yangidan qad rostlagan muhtasham inshootlar, ko'rkam binolar, obod bo'lgan muqaddas qadamlar, so'lim xiyobonlar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari shahar ko'rkiga ko'rk qo'shibdi.

Ayniqsa, kapital ta'mirlangan va rekonstruksiya qilingan umumta'lim maktablari o'quvchilarning puxta bilim olishlari, sport bilan shug'ullanishlari, hunar o'rganishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bizni behad mamnun qildi. Yangi – «Sog'lom bola yili»da ham zimmalaridagi mas'uliyat hissini yanada teranroq anglab, farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasi yo'lida astoydil mehnat qilishga chog'langan ustoz-murabbiylarimizning ezgu maqsadlari, rejaları bilan tanishdik. Iqtidorli, bilimdon, zukko o'quvchilarning har sohada qo'lga kiritayotgan yutuqlarini respublikadagi tengdoshlariga ibrat qilish maqsadida maxsus son tayyorladik.

Sh. MAKMADIYEV o'g'lan suratlar

*Yurtimizdan dunyo tamadduniga salmoqli hissa qo'shgan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqan.*

## MOZIYDAN TARALGAN YOG'DU

Ular qoldirgan boy madaniy meros oradan necha asrlar o'tsa-da, o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydi. Aksincha, bugungi yosh avlod ham ajdodlarining ibratli va xayrli ishlarini davom ettirishga, yaratgan asarlarini chuqur o'rganib, ularga munosib voris bo'lishga intilmoqdalar.

XVI asming ikkinchi yarmida Buxoro poytaxtga aylanib, mamlakatning gullab-yashnashida Abdullaxonning xizmatlari salmoqli bo'lgan bo'lsa, uning bu muvaffaqiyatlarga erishishida karmanalik mashhur so'fiy hazrat, qutb ul-aviyo Qosim Shayx Azizning hissasi beqiyosdir.


Qosim Shayx XVI asrning ma'naviyatli insonlaridan bo'lib, o'sha davr taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Uning ma'naviy silsilasi Xo'ja Ahmad Yassaviy (XII asr)ga borib

taqaladi. Qosim Shayx o'sha davrda mamlakatda olib borilgan obodonlashtirish hamda bunyodkorlik ishlariga boshqosh bo'lib, zamondoshlarini ham xayrli ishlarga undagan.

1581-yilda vafot etgan Qosim Shayxga atab maqbara va u haqida ma'lumotlar bitilgan tosh bunyod etiladi. Ushbu me'morchilik majmuiga Qosim Shayx xonaqosi, dahma, ziyoratxona va Buxoro amiri Abullaxon qabri kiradi.

1911-yilda Buxoro amiri Olimxon otasi Amir Abulohadxonning qabrini Qosim Shayx dahmasi yoniga qurdirgan. Ushbu obida 300 yil keyin bunyod etilgan bo'lsa-da, yaxlit, bir-biriga monand ulkan yodgorlik majmuasini tashkil etadi.

Istiqloldan so'ng bu qadamjolar to'liq ta'mirlanib, ziyoratchilarning eng sevimli maskanlaridan biriga aylandi.



*O'tgan yilimizni sarhisob qilar ekanmiz, yurtimizda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bo'lgani kabi, ta'lim sohasida ham ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilganiga amin bo'lamiz. Hayotga tatbiq etilayotgan qator qarorlar soha rivojiga salmoqli hissa qo'shayotgani e'tirofqa molikdir. Bu borada Navoiy viloyatida amalga oshirilayotgan ibratli ishlar xususida viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i Mehriniso opa PARDAYEVA bizga quyidagilarni gapirib berdilar.*

## YUTUQLAR CHINAKAM MEHNAT SAMARASIDIR



Viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi tizimida 2013–2014-o'quv yilida 355 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari, imkoniyati cheklangan bolalar uchun 3 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internat, 1 ta futbolga ixtisoslashtirilgan maktab-internati, jami 510 ta ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda.

Ularda ta'lim-tarbiya olayotgan 127973 nafar 1–4-sinflarda 60370 nafar o'quvchilarga 14840 nafar fidoyi pedagoglar saboq berib kelmoqda.

Viloyatdagi 15 ta bolalar va o'smirlar sport maktablarida 12830 nafar o'g'il-qiz sportning 23 turi bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan bo'lsa, 10 ta bolalar musiqa va san'at maktablarida 1995 nafar o'quvchilar musiqa va san'at yo'nalishlarida ta'lim olmoqda. 3774 nafar bolalar viloyatdagi 11 ta «Barkamol avlod» bolalar markazlari qoshidagi to'garaklarga jalb etilgan.

Joriy yilda viloyatimizda 9 ta umumta'lim maktablarida rekonstruksiya ishlari olib borilib, 2 ta umumta'lim maktabi binosi kapital ta'mirlandi.

Ma'lumki, Istiqolning dastlabki yillaridanoq bolalar sportini rivojlantirishga alohida e'tibor qaralilib, ko'plab zamonaviy sport inshootlari barpo etilmoqda. Viloyatimizda ham bu borada samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Xatirchi tumanidagi 10-va Karmana tumanidagi 16-bolalar va o'smirlar sport maktablari rekonstruksiya qilingan bo'lsa, Nurota tumanidagi 13-BO'SM II TIP bolalar sport majmuasi yangidan barpo etildi. Shuningdek, Tomdi tumanidagi 5-, Xatirchi tumanidagi 46-, Nurota tumanidagi 6-, Uchquduq tumanidagi 18-umumta'lim maktablarida zamonaviy sport zallari bunyod etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009–

2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi

to'g'risida»gi Qarori doirasida o'tgan yili viloyatimizda 4 ta bolalar musiqa va san'at maktablari qurildi. Navoiy shahridagi 8-, Uchquduq tumanidagi 10-bolalar musiqa va san'at maktablari rekonstruksiya qilindi. Zarafshon shahridagi 7-, Qiziltepa tumanidagi 3-bolalar musiqa va san'at maktablarining zamonaviy qiyofa kasb etganligi san'atsevar yoshlarimiz qalbiga bir olam quvonch ulashdi.

Yurtimizda pedagoglarning iqtidor va mahoratlarini namoyon etishlari uchun yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, ijodkorlik qobiliyatini ko'rsatayotgan o'qituvchilarimizning ko'pligidan qalbimiz faxr-iftixorga to'ladi. «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi – 2013» tanlovining respublika bosqichida Navoiy shahar 11-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi fizika fani o'qituvchisi Samar Jumayev 1-o'ringa, yana to'rt



nafar o'qituvchimiz ham faxrli o'rinlarga sazovor bo'lishganini cheksiz g'urur bilan aytib o'tish joiz.

Umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya ishlarining sifatli olib borilayotganligi o'quvchilarimiz muvaffaqiyatlarida o'z aksini topmoqda. «Bilimlar bellashuvi»ning 2013-yilgi respublika bosqichi yakuniga ko'ra 20 nafar o'quvchilarimiz sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritishdi.

«Prezident asarlarini o'rganamiz» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida ishtirok etgan Navoiy shahridagi 11-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Ilhom Ibodullayev faxrli 1-o'rinni egalladi.

Bolalar musiqa va san'ati yo'nalishida ham katta yutuqlarga erishildi. Navoiy shahridagi 1-bolalar musiqa va san'at maktabining vokal jamoasi «Yagonasan, muqaddas Vatan!» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida birinchi o'ringa loyiq topilgani, qolaversa, bir qancha san'atsevar yoshlarning xalqaro tanlovlarda ham yutuqlarga erishayotgani fikrimiz dalildir.

O'quvchi-yoshlarimizning sport sohasida erishgan g'alabalarini ham mamnuniyat bilan e'tirof etishni istardim. Belbog'li kurash bo'yicha 1999–2000-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan respublika chempionatida Abbos Tursunov murabbiyligidagi qiziltepalik yosh polvonlar 13 ta medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, Galaosiy tumanida sportning futbol turi bo'yicha 2000–2001-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi 7-an'anaviy respublika turnirida nurotalik yosh sportchilar faxrli 2-o'ringa sazovor bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 22 yilligi arafasida viloyatimiz xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan fidoyi ustozlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'lishdi. Jumladan, Karmana tumanidagi 1-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi Ozoda Alimova «El-yurt hurmati» ordeni, Xatirchi tumanidagi 22-umumta'lim maktabining biologiya fani o'qituvchisi Shohida Yo'ldosheva, Qiziltepa tumanidagi 4-umumta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi Fazliddin Xudoyberdiyevning «Shuhrat» medali bilan, shuningdek, bir guruh o'qituvchi va murabbiylarimizning «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlanishini hayajon bilan eslamalik mumkinmi?! Zarafshon shahridagi 13-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi direktori Guljahon Qarshiyevaning «Yilning eng yaxshi maktab direktori – 2013» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida g'olib deb topilganini faxr bilan e'tirof etamiz.

Viloyatimiz miqyosida o'quvchilarga yaratilgan shart-sharoitlar qatorida ularga

bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, erkin ijod qilish imkonini bergan «Barkamol avlod» bolalar markazlari namunalari faoliyatini ko'rsatib o'tish mumkin. Bugungi kunda ularning soni 11 tani tashkil etadi. Bu markazlarga o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda jalb etilgan o'quvchilarning turli tanlovlarda yutuqlarga erishayotgani quvonchli hol, albatta.

«Sog'lom bola yili» deya nomlangan mazkur yilimizda ham yoshlar kamoloti yo'lidagi ezgu, xayrli ishlarimizni zo'r g'ayrat va shijoat bilan davom ettiramiz. Zero, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «Farzandlar kamoli – yurt istiqboli»dir.

# UCHQUDUQLIK YOSHILAR

*Uchquduq tumani viloyat markazidan olis hududda joylashgan bo'lsa-da, tuman yoshlarining ta'lim, san'at, sport sohaslarida erishayotgan yutuqlariga havas qilsak arziydi. Mazkur tumandagi bir qancha ta'lim maskanlarida bo'lganimizda, bunga yana bir bor ishonch hosil qildik. Bu haqda Uchquduq tuman Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudiri Marat SHAMURATOV ham bizga quyidagilarni to'qinlanib so'zlab berdi:*

– Bugungi kunda tuman XTMFMTTEBga qarashli 20 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi, 2 ta maktabgacha ta'lim muassasasi va 2 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasasi yosh avlod kamoloti yo'lida samarali faoliyat olib bormoqda. Umumta'lim maktablarida jami 5134 nafar o'quvchilarga 560 nafar o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. Bilim dargohlarida dars jarayonlari o'zbek, rus va qozoq tillarida olib boriladi. Shuni quvonch bilan aytish

kerakki, tumandagi umumta'lim maktablarida 32 ta kompyuter sinflari mavjud bo'lib, 400 ta kompyuter jamlanmalari yoshlar ixtiyorida.

Maktablarda yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkillashtirilgan o'quv jarayonlari o'z samarasini bermoqda. Bu o'quvchilarning turli fan olimpiadalari, ko'rik-tanlovlar va musobaqalarda qo'lga kiritayotgan muvaffaqiyatlarida ham namoyon bo'lyapti. Xususan, o'tgan o'quv yilida

fan olimpiadasining viloyat bosqichida jami 46 nafar o'quvchilarimiz ishtirok etib, Uchquduq jamoasi umumiy hisobda 2804 ball to'plab, viloyat miqyosida 3-o'rinni egalladi. «Bilimlar bellashuvi»da bilimdon, zukko yoshlarimiz bu ko'rsatkichni yana bir karra yangilashdi. Bunday muvaffaqiyatlar zamirida, albatta, fidoyi ustozlarning mashaqqatli mehnati yotadi. Ana shunday jonkuyar muallimlardan biri 3-maktabning rus tili va adabiyot fani o'qituvchisi Nataliya Farukshinaning O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlanganidan behad mamnun bo'ldik. «Birga rag'bat bersang, mingga



tatiydi», deydi keksalarimiz. Tumandagi tashabbuskor o'qituvchilardan G. G'afrova, S. Sanayeva, T. Yo'ldosheva «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida faxrli o'rinlarni qo'lga kiritishdi. «Yilning eng yaxshi maktab direktori – 2012» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida esa 7-maktab direktori Adiba Ro'ziyeva 1-o'ringa sazovor bo'ldi.

O'qish, izlanish insonning ma'naviy olamini boyitadi, tashabbuskorlik va harakat uni yuksak cho'qqilarga olib chiqadi. Bugungi yoshlardan ayni shu uyg'unlik talab etilmoqda. Shunday ekan, g'ayrat va shijoat bilan yashang, aziz o'quvchilar.

*Viloyatga qilgan ijodiy safarimiz chog'ida eng namunali maktablar qatorida tilga olingan Uchquduq tumanidagi 7-umumta'lim maktabida ham bo'lib, u yerda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlari, mahoratti o'qituvchilar faoliyati bilan yaqindan tanishdik.*

## EL-YURT HURMATIGA SAZOVOR USTOZ

*Karmana tumanidagi 1-umumta'lim maktabi o'qituvchi-yu o'quvchilarining quvonchi cheksiz.*



Chunki ularning jonkuyar hamkasblari, mehribon ustozlari Mustaqilligimizning 22 yiligi arafasida davlatimizning yuksak mukofoti – «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlandi. Bu xushxabar tuman aholisini ham birdek quvontirdi.

K o ' h n a  
K a r m a n a  
tumanida tug'ilib, voyaga yetgan Ozoda opa yoshligidan o'z qishiga, izlanishga intildi. To'g'ri-da, o'qituvchi hayot yo'lining sarboni ekan, u puxta bilimga ega bo'lishi, shogirdlariga namuna bo'la olishi shart.

Inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning o'rmi muhimligini yaxshi bilgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi Ozoda Alimova o'zining bilimdonligi, mehnatsevarligi va mehribonligi bilan o'quvchilari qalbiga yo'l topa oldi. 38 yillik ish faoliyati davomida qanchadan qancha shogirdlar tarbiyaladi, halol mehnati evaziga el-yurt orasida obro'-e'tibor qozondi.

– Men 1997-yilda II darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni bilan taqdirlangan edim. Bu yil «El-yurt hurmati» ordeni sohibasi bo'ldim. Bunday yuksak mukofotlarga sazovor bo'lishim, avvalo, Istiqloq sharafigi, qolaversa, davlatimizning biz ustozlarga ko'rsatayotgan katta e'tibori deb bilaman, – deydi Ozoda opa faxr bilan.

Bizning ko'nglimizdan esa yosh avlodni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani sidqidildan ado etayotgan va buning ortidan el-yurt hurmatiga sazovor bo'layotgan Ozoda Alimovadek ustozlarimiz bor ekan, kelajagimiz nurafshon bo'laveradi, degan o'y kechdi.

F. ADILOVA

Mazkur bilim dargohiga pedagogik jamoani bir maqsad yo'lida jipslashtirib, o'z ortidan ergashtirayotgan, «Xalq ta'limi a'lochisi» nishondori, «Yilning eng yaxshi maktab direktori – 2012» ko'rik-tanlovining respublika bosqichi g'olibi Adiba opa Ro'ziyeva 13 yildan buyon rahbarlik qilib kelmoqda.

Opa bilan uchrashib, maktabda olib borilayotgan ibratli ishlar haqida so'zlab berishlarini iltimos qildik.

– Hozirgi kunda maktabimizda 700 dan ziyod o'quvchi-yoshlarga 75 nafar oliy ma'lumotli o'qituvchi-murabbiylar ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. Bilim maskanimizda farzandlarimizning barkamol avlod bo'lib voyaga yetishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, o'quv dargohida mavjud bo'lgan 1 ta kompyuter sinf va 2 ta klasser sinflari «ZiyoNet» tarmog'iga ulangan. Yaqinda 10 dona netbook kompyuterlari, 9 dona tikuv mashinalari, 40 nomdagi badiiy adabiyotlar, ensiklopediyalar va bir qancha ko'rgazmali qurollar keltirildi. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida 18 ta fan to'garaklari, 5 ta sport seksiyasi faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, o'quvchilar bo'sh vaqtlarida tumandagi bolalar musiqa va san'at maktabi, «Lochin» sport majmuasi, madaniyat uylarida sport va san'at sirlarini puxta egallab, katta yutuqlarga erishmoqdalari. Jumladan, «Zamondosh» madaniyat uyining «Layli» milliy raqs guruhi a'zolari – 5-sinf o'quvchisi Shahnoza Sa'dullayeva, 6-sinf o'quvchilari Dilafro'z Nuriddinova va Farangiz Iskandarova, 7-sinf o'quvchisi Sevara Ergasheva «Qizilqum san'at

## NAMUNALI MAKTAB

g'unchalari – 2012» ko'rik-tanlovida ishtirok etib, Gran-pri sohibi bo'ldilar. 7-sinf o'quvchisi Nodirbek Ro'zimurodov «Qizilqum ohanglari» tanlovining viloyat bosqichida qatnashib, «Eng yosh milliy maqom ijrochisi» nominatsiyasi g'olibi bo'ldi.



2012–2013-o'quv yilida o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»ning tuman bosqichida 4 nafar, 9-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan fan olimpiadasining tuman bosqichida 8 nafar o'quvchilarimiz g'olib bo'lib, tanlovning viloyat bosqichida ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritishdi.

– O'quvchilaringizning bunday muvaffaqiyatlarga erishishlarida ustoz-murabbiylarning hissasi katta, albatta. Ko'p yillik ish tajribasiga ega o'qituvchilar haqida ham to'xtalsangiz.

– Dars jarayonida yangi pedagogik texnologiya, fan yutuqlaridan unumli foydalanayotgan o'z kasbining jonkuyarlari Gulalal Pardayeva, Dilfuza Rahimova, Xosiyat Jabborova, Oydimniso Toshniyozova, Zumrad Nurullayeva, Mastura Shamsiyeva kabi ustozlarning mehnatlarini alohida ta'kidlagim keladi.

– Adiba opa, mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur. Mas'uliyatli va sharaflil ishingizda kuch-quvvat tilaymiz.

Suhbatdosh: BONU



# INTILGANGA TOLE YOR

Navoiy shahridagi 11-DJUM 8-sinf o'quvchisi Sabina Xudoyqulovaga barcha maktabdoshlari havas bilan qarashadi. Nega, deysizmi? Chunki u maktabning eng a'lochi va namunali o'quvchilaridan biri.



Barcha fanlarni puxta o'rganishga harakat qiladi. Ayniqsa, tarix faniga o'zgacha e'tibor qaratadi. Darsliklar bilan chegaralanmasdan, tarixiy kitoblarni ko'p o'qiydi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining barcha moddalarini puxta o'rgandi, Yurtboshimizning «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida» kitobini katta qiziqish bilan o'qib chiqqach, Istiqlolning oliy ne'mat ekanligini, yurtimiz mustaqillikka osonlikcha erishmaganligini teranroq angladi.

– Yurtimiz tarixini, Istiqlolga erishish yo'lida ajdodlarimiz ko'rsatgan jasoratni, ular yaratgan asarlarni o'rganmay turib, mustaqillik, ozodlik g'oyalarni chuqur anglamog'imiz mushkul, – deydi Sabina. – Ustozlarim ko'magida bu fanni o'rganar ekanman, ular ishonchini oqlashga harakat qilaman.

Bugun Sabina ustozlari ishonchini oqlamoqda, deya ayta olamiz. U tarix fanidan o'tkaziladigan «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida uch marotaba g'oliblikni qo'lga kiritdi. Har gal bellashuvga tayyorgarlik ko'rar ekan, bilimi yanada mustahkamlanib, charxlanib borayotganini his qiladi. Shuni aytadilar-da, intilganga tole yor, deb.

OLMOS

*Dunyodagi eng yaxshi sovg'a bolajonlarga atalganidir. Mehr ila tuhfa etilgan hadya quvonch-u shodliklarga, shodliklar esa ezgulik tomon keng yo'l ochadi. Yurtimizda yosh avlod kamoloti yo'lida bunyod etilayotgan ta'lim maskanlari, sport inshootlari, musiqa maktablari ana shunday ezgu ishlarning yorqin namunasi.*

# MUNOSIB SOVG'A



Istiqlolning 22 yillik to'yiga to'yona sifatida yangidan bunyod etilib, foydalanishga topshirilgan 7-bolalar musiqa va san'at maktabi zarafshonlik o'g'il-qizlar uchun eng yaxshi sovg'a bo'ldi.

Prezidentimizning 2008-yildagi «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009–2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida»gi Qarori ijrosi doirasida bunyod etilgan ushbu ta'lim maskanida ayni paytda ko'plab iqtidorli yoshlar musiqa va san'atga oid bilimlarini mustahkamlamoqdalar.

Zamonaviy loyiha asosida qisqa fursatda qurib, foydalanishga topshirilgan mazkur san'at koshonasida o'quvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Musiqa ta'limiga berilayotgan bu kabi e'tibor natijasida yosh iste'dod e'galarining turli ko'rik-tanlovlari, shuningdek, xalqaro tanlov va festivallarda qo'lga kiritayotgan yutuqlari salmog'i ortmoqda.

Yurtimizning barcha go'shalarida bo'lgani kabi Navoiy viloyatida ham iqtidorli, izlanuvchan yoshlar talaygina. Uchquduq tumanidagi 7-maktabning 8-sinfida a'lo baholarga o'qiyotgan Shohjahon Ikromov ana shunday yoshlarimizdan biri.

# ZAMON BOLAN HANNAFAS

Shohjahon barcha fanlarni yaxshi o'zlashtiradi, ayniqsa, informatika, matematika, fizika, ingliz tili fanlariga qiziqishi juda katta. Shuning uchun ham u kompyuter bilimdoni sifatida tengdoshlariga o'rnak bo'lib kelmoqda. 2013-yil Navoiy viloyatida o'tkazilgan «Xalq ta'limi tizimidagi eng yaxshi veb-saytlar» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida «Eng yaxshi o'quvchi veb-sayti» nominatsiyasi bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritib, o'z iqtidorini yana bir bor namoyon etdi.

Shuningdek, o'quv jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini unumli qo'llayotgan o'qituvchilarning ijodiy faolligini oshirish hamda o'quvchilar orasidan dasturlashtirish yo'nalishi bo'yicha eng iqtidorlilarni aniqlash va

ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkazib kelinayotgan «Eng yaxshi elektron axborot ta'lim resurslari» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida «Kompyuter o'quv o'yinlari va trenajorlar hamda videoroliklar» nominatsiyasi bo'yicha birinchi o'rinni qo'lga kiritib, ushbu tanlovning respublika bosqichida ishtirok etish yo'llanmasini oldi.

Biz Shohjahon kabi intiluvchan, zamon bilan hamnafas yashayotgan iqtidorli yoshlarimiz safi yanada kengayishini niyat qilamiz.

Zero, iqtidorsiz o'quvchining o'zi bo'lmaydi. Uni o'z vaqtida payqab, to'g'ri yo'naltirib, rag'batlantirib borish esa siz-u bizning asosiy vazifamizdir.

Manzura UBAYDULLAYEVA



Mustaqillik yillarida yurtimizda biz yoshlarning ta'lim olishimiz, ilm-fan cho'qqilarini zabt etishimiz uchun barcha sharoitlar yaratib berildi. Zamonaviy uslubda bunyod etilayotgan ta'lim maskanlari, musiqa maktablari, sport inshootlari tengdoshlarimizning o'z iste'dodini namoyon etishiga zamin yaratmoqda.

# ISTIQLOL FARZANDIMAN

2013-yilda musiqa maktabimizning yangi binosi qurilib, foydalanishga topshirilgani ham biz zarafshonlik yoshlar uchun haqiqiy sovg'a bo'ldi. Ayni paytda ushbu maskanda men kabi ko'plab san'atga oshufta tengdoshlarim musiqa va san'at sirlarini puxta o'zlashtirmoqdalar.

O'tgan yil men uchun juda omadli bo'ldi, desam yanglishmayman. Boisi, Italiyada bo'lib o'tgan xalqaro musiqa tanlovida ishtirok etib, 1-o'rin sohibasiga aylandim. Buning uchun musiqa maktabidagi mehdirdaryo ustozlarimdan behad minnatdorman. Kelajakda o'z ustimda yanada ko'proq ishlab, ona yurtimga munosib farzand bo'lish niyatidaman.

Anastasiya YAKUNINA



# DILIDA MAQSADI BOR

*Bolajonlar, mana, yangi — 2014-yilimizni ham boshlab yubordik. Shu kunlarda barchamiz o'tgan yilda erishgan yutuqlarimiz-u bajarishga ulgur olmay qolgan rejalarimiz sarhisobini qilayotgan bo'lsak, ajab emas.*

*Ko'sh, o'tgan yilda Siz qanday yutuqlarni qo'lga kiritdingiz? Biror hunar egalladingizmi yoki tanlovlarda qatnashib, g'olib bo'ldingizmi?*

*Yuqoridagi savollarimizga navoiylik tengdoshlaringiz bergan javoblardan ko'nglimiz to'ldi.*

*Quyida viloyatdagi «Barkamol avlod» bolalar markazlarida hunar o'rganayotgan o'quvchilar haqidagi lavhalarimiz bilan tanishing.*

## YOSHLARGA ZO'R QANOT

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning ongiga milliy istiqlol g'oyalari, xalqimizning ko'p asrlik tarixi, madaniyati, milliy qadriyat va an'alarini singdirish singari ezgu maqsadlar asosida faoliyat yuritayotgan Zarafshon shahridagi «Barkamol avlod» bolalar markazi ham hunar o'rganishga bel bog'lagan o'quvchilarning sevimli maskani ekan.

Bu yerda yigirmadan ziyod tajribali pedagoglarning 18 ta to'garak mashg'ulotlarini noan'anaviy usullardan foydalangan holda tashkil etishlari o'z samarasini beryapti.

«An'anaviy varraklar» tanlovining shahar bosqichida «Tasviriy san'at» to'garagi a'zosi Ravshan Ahmedov, «Texnik ijodkorlik» yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan «Ijodkor ixtirochi» ko'rik-tanlovining shahar bosqichida «Kompyuter dizayni va grafikasi» to'garagi a'zosi

Jamshid O'roqov hamda «Sehrlı yog'du» kino-foto festivalining «Foto» yo'nalishi bo'yicha «Yosh dasturchi» to'garagi a'zosi Alibek Abdullayevning faxrli 1-o'rinni egallashgani fikrimizning dalili bo'la oladi. Shuningdek, «Yosh hunarmandlar» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida «Munchoqli bezak» to'garagi a'zosi Madina Rahmonova ham faxrli o'ringa loyiq topildi.


— Ayni paytda «To'qish» (rahbari S.Tillayeva), «Munchoqli bezak» (rahbari A.Yo'ldosheva), «Yumshoq o'yinchoqlar» (rahbari D. G'afforova), «Yosh jurnalist va notiq» (rahbari G. Bozorova) singari to'garaklarimizga qatnashuvchi o'g'il-qizlar soni kun sayin ortib bormoqda, — deydi markaz rahbari Sevara Mahmudova biz bilan suhbatda.

Biz bunday maskanlar kelajagini qurish uchun katta yo'lga chiqqan o'g'il-qizlarga qanot bag'ishlashiga, qo'lida hunari, dilida yurtni obod qilishdek ezgu maqsadi bo'lgan yoshlarning kelajagi porloq, umr yo'llari nurafshon bo'lishiga ishonamiz.

## TUGANMAS XAZINA

Nurota tumanidagi bolalar markazini, hunar o'rganishni maqsad qilgan o'quvchilarning sevimli maskani, deya e'tirof etishadi.

Bugungi kunda markazda 500 ga yaqin o'g'il-qiz darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishmoqda. Yigirmaga yaqin to'garaklar orasidan kulolchilikni tanlagan Ra'no Istamtosheva tumandagi 54-maktabning 9-sinfida tahsil oladi. Kulollar sulolasidan bo'lgan qizdagi intilish uni markaz tomon yetakladi. Hozirda otasi va ustozlaridan kulolchilik sir-asrorlarini o'rganayotgan tengdoshingizdan o'rnak oling! Zero, hunar tuganmas xazinadir.



## PARVOZ QILGANDEK BO'LDIM

Qiziltepa tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar markazi 2012-yilda kapital ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi. O'quv xonalari zamon talablari asosida jihozlangan, barcha qulayliklarga ega ushbu maskanda ayni paytda «Bichish-tikish», «To'qish», «Yumshoq o'yinchoqlar», «Tasviriy san'at», «Boshlang'ich model» singari o'nlab to'garaklar o'quvchilar ixtiyorida.

— Men darslardan so'ng, tumanimizdagi bolalar markazining «Boshlang'ich model» to'garagiga yo'l olaman, — deydi Shahzod Qahramonov. — Biz bu yerda rahbarimiz Nasriddin aka Xo'jayevdan texnik vositalardan — samolyot, mashina, vertolyot, raketa modellarini yasashni o'rganamiz. Oddiygina xomashyolardan yasalgan kichkinagina modelingiz harakatlansa, ich-ichingizdan xursand bo'lib ketarkansiz. Ayniqsa, birinchi marta yasagan samolyot modelim osmonga parvoz qilganida, o'zim ham ko'klarga uchgandek bo'lgandim. Hozirda yangi-yangi modellar yaratish ustida bosh qotiryapman.

Markazning «Avtomodel» to'garagi a'zolari ham izlanishda Shahzoddan qolishmas ekanlar. Jasur Isroilov va Jo'rabek Bozorov 2012-yilda respublika miqyosida o'tkazilgan «Ijodkor ixtirochi» ko'rik-tanlovida «Sanoat-agrosanoat» yo'nalishi bo'yicha o'z-o'ziga yuk ortuvchi mashina loyihasi bilan qatnashib, faxrli 1-o'rinni egallashibdi.



## GILAMCHI QIZ

Ishtiyok va qunt bo'lsa, barcha orzularga erishish mumkinligini yaxshi bilgan ikki yuz nafar konimexlik bolalar ham tumandagi ana shunday markazga a'zo bo'lishgan. «Qando-latchilik», «Gulchilik», «Gilamdo'zlik» kabi to'garaklarga qatnashayotgan yosh hunarmandlar bilan bizni tanishtirgan ustoz Gulzira opa Tongotarova bir nechta tanlov va festivallarda ishtirok etgan shogirdi, tumandagi 22-maktabning 5-sinf

o'quvchisi Elmira Turg'unboeva haqida alohida to'xtalib o'tdi:

— Juda kichikligidanoq onasi va buvisidan bu hunar sirlarini o'rgana boshlagan Elmira bugungi kunda «Oq en», «Gajari» kabi gilam turlarining to'qilish usullarini puxta egallamoqda. Tirishqoq va intiluvchan shogirdimning mohir hunarmand bo'lib ulg'ayayotganidan xursandman...

Anglaganingizday, hunar egallagan o'quvchi o'z hayotiga mazmun bag'ishlaydi, otasonasi-yu ustozlariga rahmatlar keltiradi, maktabi, markazi, tuman nomini elga tanitadi.

## ISTE'DODLAR MASKANI

Endi viloyatning chekka hududlaridan biri — Tomdi tumani «Barkamol avlod» bolalar markazidagi tengdoshlaringiz yutuqlari bilan tanishing.

Bu markazda faoliyat yuritayotgan to'garak rahbarlarining mahorati o'quvchilar iste'dodini yuzaga chiqarishga turtki bo'lmoqda. Maskan qoshidagi «Yosh jurnalist va notiq», «Folklor qo'shiqchilik», «Yosh tabiatshunos», «Kompyuter servis xizmati», «Mohir qo'llar» singari to'garaklarga jalb qilingan 90 nafar o'quvchi-yoshlarning yutuqlari ham talaygina ekan.

Ayniqsa, «Mohir qo'llar» to'garagining faol a'zosi Balnur Tursinovaning tikkan bejirim va chiroyli ro'zg'or buyumlari-yu kiyimlariga ko'plab dugonalari havas bilan qarashadi.



# NAVYOIYLIK NAVODIL QALBLAR

Hazrat Navoiy bobomizning tabarruk nomlari bilan ataladigan Navoiy viloyatida she'r yozmaydigan yoshlar bo'lmasa kerak. Tahririyatimizga bu go'shadan kelayotgan hisobsiz she'riy maktublar fikrimiz isboti bo'la oladi. Beg'ubor, pokiza, o'ynoqi satrlarda yosh qalamkashlarimizning cheksiz ko'ngil kechinmalari, dil izhorlari o'z aksini topadi. Ana shunday she'r va hikoyalardan jamlangan mazkur she'riyat sahifamiz orqali Siz aziz o'quvchilarni ham ushbu ijod bo'stonining sof chashmalari qalbidan sizib chiqayotgan yorqin rangli satrlardan bahramand aylashga shoshildik.

AXTAMQULI

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadimda kambag'al oilada Parijamol ismli bir go'zal qiz yashagan ekan.

Kunlarning birida u betob bo'lib qolibdi. Qizning dardiga hech bir tabib davo topa olmabdi. Parijamol yashagan uyning oldida bir chinor daraxti o'sar, uning yonidan zilol suv oqib o'tar ekan. Qiz har kuni beholgina chinor tagiga kelib, suvga termilib o'tirarkan.

Bir kuni zilol suv tilga kirib, shunday debdi:

– Qizim, nima bo'lganda ham umidingni so'ndirma. Hademay, tuzalib ketasan.

– Yo'q, tuzalmayman, chunki hech bir tabib mening dardimga davo topa olmayapti, – deya yig'labdi qiz.

Bu suhbatni tinglab turgan chinor daraxti ham tilga kiribdi va:

– Qizim, sen ruhingni tushirma, yashashga intil, – debdi. – Mana bu zilol suvga boq. Unga



shamol, bo'ronlar chang-to'zon, xas-cho'plar tashlashga urinadi. Shunday bo'lsa-da, u xafa bo'lmaydi. G'uborlarni cho'ktirib yuborib, yana zilol suvga aylanadi. Yoki kaminaga boq. Men necha asrlardan buyon yashayman, ko'plab yaxshi va yomon kunlarni ko'rib, barcha qiyinchiliklarni sabr-bardosh ila yengib kelmoqdaman.

Parijamol bu so'zlardan o'ziga kerakli xulosa chiqarib olibdi.

U zilol suvdan umidni so'ndirmaslikni, chinordan esa sabr qilishni, yashash uchun kurashishni o'rganibdi. Xastalik bilan olishib, tezda tuzalib ketibdi.

Alqissa, bemor tezda davo topib ketishi uchun uning irodasi mustahkam bo'lishi, sidqidildan sog'ayishga intilishi lozim ekan.

Charos XAYRULLAYEVA,

Xatirchi tumanidagi 22-maktabning 5-sinf o'quvchisi

## HOVLIMIZ DOIM BAHOR

Hovlilarni supurib  
Qo'ysam, gullarga qarab,  
«Zumrad qizim», deydilar,  
Bobojonim erkalab.

Xushbo'y, muattar hidlar,  
Taraladi tong sahar.  
Gullarimning ko'rkidan,  
Hovlimiz doim bahor.

Ayzada ASTANOVA,  
Konimex tumanidagi  
19-maktabning  
3-sinf o'quvchisi



## UCHQUDUQ

Kundan kunga ko'rk ochar shahrim,  
Senga mudom talpinar qalbm,  
Sen g'ururim, sen o'zing faxrim,  
Cho'l bag'rida marjon, Uchquduq.

Baxtiyormiz bag'ringda har on,  
Ostonangdan arimas mehmon,  
Gulla, yashna, bor ekan imkon,  
Cho'l bag'rida marjon, Uchquduq.

Marjona HAKIMOVA,  
Uchquduq tumanidagi  
20-maktabning  
7-sinf o'quvchisi



## QISH

Ey, qo'g'irchoq, qo'g'irchoq,  
Qizchalarga ovunchoq.  
Seni men ham shod-xurram,  
O'ynab yurardim har choq.

Erkatoy singlim hozir,  
Seni qo'ldan qo'ymaydi.  
Har kuni bir ko'rmasa,  
Sira ko'ngli to'lmaydi.

Qo'g'irchoq'-u qo'g'irchoq,  
Shunday do'st bo'l qizlarga.  
Ko'nglingdagi soflik, oq,  
Yetsin uzoq yillarga.

Surayyo RAHIMOVA,  
Nurota tumanidagi  
8-maktabning  
7-sinf o'quvchisi



## BOBOM O'GITI

Bolajonim, shukur qil,  
Taning sog'-u, ko'ngling to'q.  
Shunday yurtning, eling bor,  
Dilginganda armon yo'q.

O'z lafzida turolgan,  
G'ururi tog', alp bo'lg'in.  
Vijdoni sof, sabrli,  
Shaffofdek bir qalb bo'lg'in.

Sening mitti qalbingni,  
Zabt etmasin nomardlik.  
Chin insondek yashagin,  
Xislati bo'lsin mardlik.

Fayoz QOSIMOV,  
Qiziltepa tumanidagi  
Yengil sanoat  
qishloq xo'jaligi  
kolleji o'quvchisi



## ERINCHOQ SICHQON

Ovqatdan oldin sichqon,  
Qo'lin chala yuvibdi.  
Sovunlashga erinib,  
Sochiqni kir qilibdi.

Mikrob tushib og'ziga,  
Qorni og'rib qolibdi.  
Shifokorga borib u,  
Muolaja olibdi.

Ko'rdingizmi, do'stlarim,  
Tozalik – salomatlik.  
Ozodalik-la hayot,  
Chiroyli hamda totlik.

Firdavs NAVRO'ZOV,  
Navbahor tumanidagi  
6-maktabning 4-sinf o'quvchisi



# YURTGA TIRGAK O'G'LONLAR

*Vatanni himoya qilish, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash har bir er yigitning muqaddas, shu bilan birga, sharafti burchidir.*

Navoiy viloyatining Zarafshon tumanida tug'ilib o'sgan tengdoshingiz Abdulla Ramazonov ham bolalikdan harbiy bo'lishni orzu qildi. Bu ezgu niyat uni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining harbiylashtirilgan maxsus maktab-internati tomon yetakladi. Ayni paytda ushbu bilim dargohining 7-«V» sinfida a'lo baholarga tahsil olayotgan Abdulla bo'sh vaqtlarida poytaxtimizdagi «Jar» sport-sog'lomlashtirish markazida malakali murabbiylar qo'l ostida sportning dzyudo turi bilan muntazam shug'ullanmoqda. Chunki u dovyurak, jasur yurt posboni bo'lib yetishish uchun jismonan baquvvat bo'lish lozimligini yaxshi anglaydi.

– Har gal oynayi jahon orqali «Vatanparvar» ko'rsatuvini tomosha qilib, harbiy libosi o'ziga yarashgan, ko'zlarida shijoat porlab turgan mard akalarimga havas bilan qarayman. Men ham kelajakda shu muqaddas yurtning posboni bo'lishga ahd qilganman,

– deydi Abdulla Ramazonov. Mazkur maktab-internatning 8-«A» sinfida tahsil olayotgan



navoiylik yana bir tengdoshingiz Nodir Turpovning ham harbiy sohaga mehri bo'lakcha. U, mana ikki yildirki, sportning boks turi bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. Nodirga ta'lim maskanida o'tiladigan saboqlardan, ayniqsa, qo'l jangi darsi juda yoqar ekan.

**Hozirgi vaqtda mustaqillik yillarida tug'ilib voyaga yetgan, mamlakatimizdagi litsey va kollejlarda eng zamonaviy ta'lim-tarbiya olgan yigitlar armiya saflariga kirib kelmoqda. Ular zamonaviy axborot, kompyuter texnologiyalarini, xorijiy tillarni puxta egallagan va eng asosiysi – hayot haqida o'zining mustaqil fikri va qarashiga, axloqiy-ma'naviy qadriyatlariga ega bo'lgan yoshlardir.**

**Islom KARIMOV**

– Mardlik, jasorat har bir yigitning ko'rkidir. Bugun maktabimizda ana shunday jasur, qat'iyatli, bir so'z bilan aytganda, Jaloliddin Manguberdi, Amir

ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo etilgan. Jumladan, o'quvchilarning xorijiy tillarni mukammal o'rganishlari, bo'sh vaqtlarida badiiy adabiyot mutolaa qilishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Harbiylashtirilgan maxsus maktab-internatning 5-«A» sinfida a'lo baholarga o'qiyotgan navoiylik Sanjar Safarovni aytishicha, ular yaqinda sinfdosh do'stlari bilan birga qasamyod qabul qilishibdi. Namunali, a'lochi sinf sardoriga ushbu bayramona tadbir juda manzur bo'libdi. «Vatan, ota-onamiz, ustozlarimiz oldidagi burchimizni ado etishimiz, va'damizni bajarishimiz uchun dars va mashg'ulotlarni a'lo baholarga o'zlashtirishimiz lozim», deydi quyi sinf o'quvchisi dadillik bilan.

Temur kabi buyuk otabobolarimizning chinakam vorislari kamol topmoqda. Men ana shunday asl o'g'larning ustozlari ekanimdan faxrlanaman, – deydi 8-«A» sinf komandiri Davron aka Shaymonov.

Shu o'rinda aytib o'tish joiz, mazkur maktabda o'quvchilarning

Chindan ham bo'lajak yurt posbonlari tengdoshlariga har jabhada o'rnak, o'z qasamyodiga sodiq bo'lmo'g'i lozim. Buni dildan chuqur anglagan ona Vatan o'g'lonlari yurtga tirgak, elga suyanch bo'lg'usidir.

## OT IZINI TOY BOSAR

*Navoiy shahrida istiqomat qiluvchi Faxriddin aka Qurbonov va Nazira opa Mirzayeva xonadonida ikki qizdan so'ng orziqib kutilgan o'g'il farzand dunyoga keldi. Faxriddin aka farzandiga ezgu niqatlar ila Yusufbek deya ism qo'ydi...*

Oradan yillar o'tdi. Bir kuni 5 yoshli Yusufbek dadasini harbiylar libosida ko'rib, onasidan qiziqib so'radi:

– Oyijon, dadamning egnidagi qanday libos? Menga ham xuddi shunday kiyim olib bering.

Farzandining yuz-ko'zlaridagi hayajonni ko'rib, Nazira opa ich-ichidan sevindi.

– Bolajonim, bu harbiylarning libosi. To'g'ri, u juda chiroyli. Lekin bu kiyim hech bir bozorda sotilmaydi. Uni faqat dadangga o'xshagan harbiylargina kiya oladi. Bu libosni kiygan yigitlar esa ona Vatanning asl farzandlari, himoyachilardir.

– Oyijon, men ham katta bo'lsam, albatta, dadamga o'xshab harbiy bo'laman. Vatan himoyachisi bo'lib, sizni, dadamni, opalarimni yomonlardan himoya qilaman...

\*\*\*

Yusufbek Maxanov Navoiy shahridagi 6-umumta'lim maktabida, so'ngra, fizika, matematika va ingliz tili fanlariga ixtisoslashtirilgan maktab-internatda a'lo baholarga o'qib, ustozlari mehrini qozondi, tengdoshlariga o'rnak bo'ldi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya o'qituvchisi B. Kamolovning bergan o'gitlari, saboqlari Yusufbekning qalbidagi harbiy bo'lish orzusini yanada mustahkamladi. U ustozining o'gitlariga tayangan holda jismoniy tayyorgarlikka alohida e'tibor qaratdi, shuningdek, fizika, matematika, tarix, ona tili va adabiyot fanlariga oid bilimlarini mustahkamladi.

2013-yil Yusufbek maktabni muvaffaqiyatli tamomlagach, bolalikdagi orzulari uni poytaxtimizdagi harbiy telekommunikatsiya yo'nalishidagi Toshkent akademik litseyi tomon yetakladi. Hozirda u mazkur bilim dargohining

1-bosqichida a'lo baholarga o'qimoqda. Bo'lajak yurt posboni o'qishdan bo'sh vaqtlarida sport bilan shug'ullanishni ham aslo kanda qilmaydi. To'g'rida, harbiy bo'laman, degan har qanday yigit jismonan baquvvat, qat'iyatli, mard va jasur bo'lishi lozim. Inson bunday fazilatlariga, albatta, sport orqali erishadi.

Harbiy litseyda o'quvchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. 2 ta zamonaviy kompyuter xonasi, o'quvchilar ingliz tilini puxta o'rganishlari uchun lingafon xonalari zamon talablari asosida jihozlangan. Shuningdek, 4 qavatli shinam turarjoy, ovqatlanish xonasi o'quvchilar ixtiyorida. Bo'lajak Vatan himoyachilariga o'z kasbining chinakam fidoyilari bo'lgan o'qituvchi va murabbiylar, harbiy xizmatchilar ta'lim-tarbiya berib kelmoqda.

– Vatanning tayanchi, ishonchi, suyanchi bo'lishni har bir yigit orzu qiladi. Men ham mazkur bilim dargohini tugallab, Jizzax aviatsiya oliy harbiy bilim yurtiga o'qishga kirmoqchiman. Nasib bo'lsa, ona Vatanninga sidqidildan xizmat qilaman, – deydi Yusufbek Maxanov.

Biz ham uning yurt himoyachisi bo'lishdek muqaddas orzusi amalga oshishiga tilakdoshmiz.

# ISTE'DOD – CHEKSIZ UMMON



Navbahor tumanidagi 37-ixtisoslashtirilgan maktab-inter-natning 8-sinf o'quvchisi Charos

Ismatova iqtidorli yoshlardan biri. Bolaligidan rassomlikka mehr qo'ygan bu tengdoshingiz dunyoni turli ranglarda ko'radi. Ustozi Nurillo Choriyevdan manzara, natyurmort janrlari sir-asrorlarini qunt bilan o'rganayotgan Charos odobi, xulqi, tirishqoqligi bilan tengdoshlariga o'mak bo'lib kelmoqda. Uning turli mavzularda yaratgan ijodiy ishlarini kuzatar ekansiz, ko'z o'ngingizda olam go'zalliklari butun bo'y-basti bilan gavdalangandek bo'ladi, go'yo. Jumladan, u o'zining «Baxt qushi», «Kabutar», «Raqs», «Tabiat haqida qo'shiq», «Oltin baliqcha», «Kuy» kabi ijodiy ishlari orqali tomoshabiniga qalb kechinmalarini izhor etadi. Yosh musavvir bugunga qadar «Bolalar va suv» ekofestivali,

«Yer kurrasiga tinchlik» kabi respublika ko'riktanlovlari faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. Shuningdek, u amaliy san'at sirlarini ham qunt bilan o'rganyapti.

– Iste'dod cheksiz ummonga o'xshaydi. U mehnatdan kuch olib,



muvaffaqiyatlarga keng yo'l ochadi, – deya o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi yosh musavvir Charos Ismatova.

Konimex tumanidagi 2-maktabning

8-sinf o'quvchisi Berdaq Shukrullayev ham kelajakda mohir rassom bo'lib, yurtimiz tabiatining betakror go'zalligi, Istiqlol yillarida diyorumizda amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlarini o'z ijodi orqali aks ettirishni niyat qilgan. U ham viloyat va respublika miqosida o'tkazilgan turli ko'riktanlovlarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Biz bu yosh iste'dod egalari ijodiy barkamollik tilaymiz. E'tiboringizga ularning ayrim ishlaridan namunalar havola qilyapmiz.




## TOPSHIQLAR

O'zi kichik,  
go'l-oyoqsiz,  
axborotlar  
beradi,  
Yer kurrasini har burchidan  
xabar berib turadi.



Keng samoda  
yulduzlarni  
quchadi,  
Uzoq yo'lni yaqin  
qilib uchadi.

O'qib mudom o'rganamiz  
hayotni,  
Hayot qadar,  
ulashadi u  
baxtni.



O'zi pastak,  
hayvonlarning  
kichigi,  
Ayyorlikda,  
baland kelar  
yitug'i.

Ergash ATOYEV,  
Qiziltepa tumani

## «SHOIR KEZGAN DIYOR» AYLANMA KROSSVORDI



**Shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida:** 1. Oltin konchilari shahri. 2. Navoiy tumanida tavallud topgan yozuvchi, jurnalist. 3. Viloyat konlaridan olinadigan, o'tga chidamli, och kulrang metall. 4. Yaylovlarga boy tog'lik tumani. 5. Ommalashgan sport turi. 6. Shaharchalardan biri. 7. Ildizmevali sabzavot. 8. O'zbekiston xalq shoirasi, «Ko'zimning oqu qorasi» she'riy to'plami muallifi. 9. Viloyatdan oqib o'tuvchi daryo. 10. Qizilqum cho'lida joylashgan tuman. 11. Ma'danlar qazib chiqarish sanoati tarmog'i. 12. Ko'plab yetishtiriladigan chorvachilik mahsuli, mo'yna. 13. Past va o'rtacha balandlikdagi tog'lardan biri. 14. Quqli cho'llarda

o'suvchi tanasi qattiq daraxt. 15. Alohida manzara kashf etgan berk botiqli hududlardan biri. 16. Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish ashysi. 17. To'pli sport o'yini. 18. Viloyat markazida ramziy haykali o'rnatilgan Alisher Navoiy dostoni qahramoni. 19. Zarafshon daryosining quyi qismi sohilidagi tuman. 20. Nurota tumani gazetasi.

### TOPSHIRIQ

Aylanma krossvordni hal etgach, javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar asosida shaklning o'rta qismidagi raqamlarda yashiringan topshiriqni hal eting. Bunda ulardan Navoiy viloyatidagi qadimiy noyob rasmlar o'yib ishlangan qoyatoshlar maskanini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Husan OROPOV

Maxsus sonni tayyorlashda yaqindan yordam bergan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining axborot xizmati xodimlariga, Navoiy viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i M.Pardayevaga va barcha mutasaddilarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Maxsus sonni tayyorlaganlar:

F. JALILOVA, S. TURSINOV, S. QODIROVA, N. ABDULLAYEVA, Z. MAMATQULOVA

8

13-yanvar 2014

Bosh muharrir  
Feruza JALILOVA

Tahrir hay'ati:  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruza ADILOVA  
(mas'ul kotib),  
Sobitxon TURG'UNOV,  
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi  
muharrir  
Dilorom  
HOTAMOVA  
Rassom  
Feruza  
MATYOQUBOV  
Dizayner  
Olovuddin  
ORIPOV

Manzillimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi – 48819  
Buyurtma N: J 8934

### Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi  
Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qaratilgan bo'lgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.